

## SHAXS IJODIY TAFAKKURI SHAKLLANISHIDA DINIY FENOMENLAR RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

*Salomov Shamsiddin Saboxiddin o'g'li*

*(shamsiddinsalomov1@gmail.com)*

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya.** Maqola ijodiy tafakkur, uning shakllanishida diniy fenomenlarning rolini nazariy tadqiq etishga bag'ishlangan bo'lib, unda diniy tafakkur va dunyoqarash, diniy e'tiqod shakllanishi masalasi hamda ularning shaxs ijodiy fikrlashidagi ahamiyatiga oid turli olimlarning qarashlari va tadqiqotlarining tahlili keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Tafakkur, ijodiy tafakkur, din, diniy tafakkur, diniy ong, diniy dunyoqarash, shaxs taraqqiyoti.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ РЕЛИГИОЗНЫХ ФЕНОМЕНОВ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

*Саломов Шамсиддин Сабохиддин ўғли*

*(shamsiddinsalomov1@gmail.com)*

*Магистрант Международной Исламской Академии Узбекистана*

**Абстрактный.** Статья посвящена творческому мышлению, теоретическому размышлению о роли религиозных явлений в мире, анализу религиозного мышления и мировоззрения, значению такого мышления и мировоззрения в личном творческом мышлении.

**Ключевые слова:** Мышление, творческое мышление, религия, религиозное мышление, религиозное сознание, религиозное мировоззрение, развитие личности.

## THE PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF RELIGIOUS PHENOMENA IN THE FORMATION OF PERSONAL CREATIVE THINKING

*Salomov Shamsiddin Sabokhiddin ugli*

*(shamsiddinsalomov1@gmail.com)*

*Graduate student of the International Islamic Academy of Uzbekistan*

**Abstract.** The article is devoted to the theoretical study of creative thinking, the role of religious phenomena in its formation, it contains an analysis of the views and researches of various scientists on the issue of religious thinking and worldview, the

formation of religious beliefs, and their importance in the creative thinking of an individual.

**Key words:** Thinking, creative thinking, religion, religious thinking, religious consciousness, religious outlook, personal development.

**Kirish.** Bugungi kunda globallashuv davri, fan-texnika rivojlanishi natijasida jamiyatda turli axborotlar va g'oyalar almashinuvining tezlashishi yosh avlodda vaziyatlarga to'g'ri baho berish, sog'lom fikrlash, turli g'oyalarni tahlil qila olish, to'g'ri qaror qabul qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishni talab etmoqda. Ushbu xususiyatlarni rivojlantirish nafaqat jamiyatning tinch va barqarorligining ta'minlanishi, balki uning rivojlanishi va farovon bo'lishida muhim ahamiyatga egadir. Ushbu jarayonlarga shaxs ishonch e'tiqodi, diniy qarashlari va bilimlari ham muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun, ularda sog'lom diniy dunyoqarash va tafakkur shakllantirish, turli diniy va dunyoviy fenomenlar (jarayonlar)ni tahlil qila olish qobiliyatini rivojlantirish bugungi kun zaruratlaridan biridir.

Shaxsda tafakkur shakllanishi, albatta, turli omillar bilan birga, dinga ham bog'liq hisoblanadi. Ayniqsa, diniy bilimlarning rivojlanishi, dindagi qonun-qoidalar va normalarni o'zlashtirish va shaxsning o'z hayotiga tadbiiq etishi uning tafakkuriga ta'sir qilmay qolmaydi. Xususan, shaxs qaror qabul qilayotganida, voqea-hodisalarni tahlil qilganida, muammolarni yechish jarayonida diniy attribyutlar (sabablar)ni hisobga olishi ushbu jarayonga yaqqol misoldir.

Din (arabcha - ishonch, e'tiqod) ma'lum bir shaxs va jamoat e'tiqod qiladigan qadriyat, qat'iy amal qilinadigan qoida va normalar tizimidir. Inson diniy qoidalar va normalarga turli darajalarda amal qilishi bilan bir qatorda turli tafakkur operatsiyalarda, qaror qabul qilish jarayonida, voqea-hodisalarni tahlil qilish, muammolarga yechim topish jarayonlarida ham diniy bilimlarga tayanishi mumkin bo'ladi.

Qadimdan din insoniyatning muhim bir bo'lagi, jamiyat hayotini tartibga soluvchi, kishilar o'rtasida o'zaro va shaxslarning tabiat bilan munosabatlarini ham tartiblovchi qoidalar majmui hisoblangan. Shu nuqtai nazardan, dinning turli xil doiralarda ijtimoiy soha olimlari ta'riflashga intilishgan. Psixolog olim Beyer dinni mazmunan hamda funksional jihatdan ta'riflashni taklif qilgan. Uning fikricha, mazmunan din g'aytita'biy va ilohiy xususiyatga ega bo'lib, dinning zamirida shaxsning Yaratganga ishonch va e'tiqodi yotadi. Funksional jihatdan esa din ijtimoiy hodisa bo'lib, undagi qonun-qoidalar va u asosida olingan bilimlar shaxsning turmush tarzi va psixikasiga ijtimoiy-psixologik jihatdan ta'sir qiladi [2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Din va dindorlikning jamiyatdagi qonun-qoidalarga, normalarga ta'siri va jamiyat hayotida ushbu fenomenlarning roli hisobga

olinsa, ularning inson hayoti va faoliyatiga, shaxslararo munosabatlariga, xulq-atvori, qaror qabul qilishi, fikrlashi va dunyoqarashiga ta'siri va o'rnini anglash qiyin emas. Inson hayot kechirar ekan, ma'lum bir qoidalar va normalarga bo'ysunishi, ma'lum bir bilim va tajribalar asosida olamni hamda o'zini anglashi va tahlil qilishi shubhasizdir. Har bir shaxs ushbu faoliyatni bajarishi jarayonida diniy fenomenlarni, diniy tajriba va dindagi qoidalarni ham hisobga olishi mumkin. Shu nuqtai nazardan har bir shaxsda diniy affiliatsiya (mansublik, bog'liqlik) mavjuddir.

Diniy affiliatsiya shaxsning ma'lum bir dinga, diniy jamoaga, guruhga mansublikni anglatadi. Keng ma'noda diniy affiliatsiya nafaqat ma'lum bir din yoki diniy jamoaga mansublikni, balki shaxsning o'z e'tiqodiga, diniy amallariga bog'liqligini anglatadi.

Ijodiy tafakkur uchun diniy affiliatsiyaning ahamiyati individual e'tiqodga, madaniy kontekstga va diniy anananing o'ziga xos xususiyatiga qarab juda katta farq qilishi mumkin. Ba'zi odamlar uchun diniy affiliatsiya murakkab falsafiy va ekzistensial savollarni o'rganish uchun asos yaratish, muqaddas matnlar yoki ta'limotlarning xayoliy talqinini rag'batlantirish, hayrat va qo'rquv tuyg'usini rivojlantirish orqali ijodiy sifatlarni rivojlantirishi mumkin.

Ushbu jarayon shaxsning dindorlik xususiyatiga ham bog'liqdir. Dindorlik inson yoki jamoaning diniy e'tiqodlar, urf-odatlar, marosimlar yoki qadriyatlarga qanchalik rioya qilishini yoki ularning ta'sirini bildiradi. U diniy marosimlarda qatnashish, shaxsiy e'tiqodlar, diniy faoliyat bilan shug'ullanish va dinning kundalik hayotdagi ahamiyati kabi turli jihatlarni o'z ichiga oladi. Ko'pgina olimlar dindorlik darajasining shaxsga turli jabhada ta'sirini o'rganishga harakat qilishgan. Bunga asos qilib esa dindor shaxslarning ibodatxonaga qatnash vaqtini hisobga olishgan. Shaxsdagi dindorlik ichki va tashqi motivatsiyalarga bog'liq bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra Olport ekstrinsik(tashqi) va intrinsik (ichki) dindorlik turlarini ajratishni taklif qilgan. Olport ushbu kategoriyalarni shaxsda dindorlik xususiyatining ichki yoki tashqi sabablarga ko'ra shakllanishi mumkinligi jihatdan tushuntirgan[11]. Ichki diniy yo'nalganlik asosida shaxslar, asosan, diniy e'tiqod va qadriyatlarni inobatga olishadi va barcha diniy amallarni haqiqiy ishonch hamda taqvo bilan amalga oshiradilar. Ularni ichki va ko'proq botiniy sabablar dindor bo'lishga undaydi. Tashqi motivatsiya asosida diniy yo'nalgan shaxslar, asosan, diniy faoliyatda xavfsizlik, tasalli yoki ma'qullanish, hurmat qozonish kabi o'ziga xos sabablarga ko'ra ishtirok etishlari mumkin.

Tashqi diniy yo'nalganlikning ijodiy tafakkurga ta'siri turlicha bo'lishi mumkin. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tashqi mukofotlarga yoki ijtimoiy ma'qullanish motivlariga qaratilgan tashqi diniy yo'nalganlik diniy me'yorlarga muvofiqlikni, bo'ysunishni targ'ib qilish va noanaviy g'oyalarni rad etish orqali ijodiy tafakkurga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Lekin ayrim tadqiqotlarda diniy e'tiqod va amaliyotlar

marosimlar, hikoyalar va axloqiy ta'limotlar orqali ijodiy fikrlashni rag'batlantirib, obrazli fikrlash va muammolarni hal qilish uchun asos yaratadi. Umuman olganda, tashqi diniy yo'nalganlik va ijodiy tafakkur o'rtasidagi munosabatlar murakkab va individual omillar va madaniy kontekstlarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Diniy tafakkur jarayoni bevosita diniy ong bilan bog'liq jarayondir. Diniy ong diniy g'oyalar, qarashlar va qadriyatlar hamda diniy bilimlar asosida shakllangan diniy psixologik fenomen hisoblanadi.

Diniy bilimlar asosida esa shaxsda diniy tafakkur shakllanadi. Diniy tafakkur inson ongining dastlabki shakllaridan biridir. Ilmiy manbalarga asosan, diniy ong bundan 40-50 ming yil avval paydo bo'lgan. Shaxs ongida diniylik diniy tafakkur orqali shakllanadi. Chunki diniy tafakkur ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanadi [3]. Bu esa ularning murakkab konsepsiyalar va ma'lumotlarni tahlil qila olishi, tanqidiy fikrlashi jarayoni uchun juda muhim sanaladi. Bu esa ijodiy tafakkur rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Diniy tafakkurning rivojlanishini tadqiq etish uchta bosqichda amalga oshirilgan. Birinchi bosqich bolalarning diniy tafakkuri rivojlanishini tadqiq etgan Piajet J. ning kognitiv rivojlanishning strukturaviy modeli tomonidan amalga oshirilgan [8].

Ikkinchi bosqich Kohelbergning axloqiy taraqqiyotga oid tadqiqotlarini o'z ichiga oladi. Kohelberg o'z tadqiqotlarini ikki yo'l orqali amalga oshiradi. Birinchisida u diniy tafakkurning affektiv va ekzistensial jihatlarini tadqiq etadi. Ikkinchi yo'l orqali butun shaxs taraqqiyoti davrida diniy e'tiqod va tafakkur rivojlanishini tadqiq etadi [9]. Diniy tafakkur taraqqiyotini o'rganishning uchinchi bosqichi post-Piajet taraqqiyot nazariyasiga asoslangan holda bolalar va kattalar diniy tafakkurning farqlarini, yosh omillarini tadqiq etish jarayonini tashkil etadi. Quyida diniy tafakkur rivojlanishini tadqiq etishning Piajet nazariyasiga asoslangan tadqiqotlarga e'tibor qaratamiz.

Piajet nazariyasiga asoslangan diniy tafakkur taraqqiyotining strukturaviy modeli Devid Elkind (1961) [4. p-649,659], hamda Roland Goldmanning (1964) [7] tadqiqotlaridan boshlanadi. Elkind o'z tadqiqotlarini diniy o'ziga xoslikning bolalarda rivojlanishi jarayoniga qaratgan bo'lsa, Goldman Injildagi oyat va hikoyalarning shaxs psixik va aqliy taraqqiyotiga ta'sirini o'rganishga diqqat qaratgan. Lekin ikkala tadqiqotchi olimlar bolalarning diniy ishonchi va dunyoqarashini klinik interview metodi asosida o'rganishgan va Piajetning taraqqiyot modeli asosida tahlil qilishgan. Ikki tadqiqotchi ham garchand diniy tafakkur rivojlanishini turli yosh omillari bo'yicha olib borishgan bo'lsa ham, ular ushbu tadqiqotlar asosida diniy tafakkur rivojlanishining uch bosqichli modelini ishlab chiqadilar.

Ushbu modelga ko'ra bolalar dastlab intuitiv bosqichni boshdan kechiradilar. Ushbu bosqichda ular Olloh tomonidan berilgan va ota-onalari tomonidan o'rgatilgan diniy o'ziga xoslik va mansublikni anglay boshlaydilar. Ibodatlarga asosan shaxsiy ehtiyojlar asosida yondashiladi, murakkab diniy tushunchalarni tushunish va tahlil

qilishga bolaning tafakkuri ojizlik qiladi. Keyingi yetti yil davomida diniy tafakkur konkret bosqichga o'ta boshlaydi. Bolalar diniy mansublik va o'ziga xoslikni turli xil xulq-atvor formalari, shaxslararo munosabatlar, tashqi ko'rinish va turli xil faoliyati bilan bog'lay boshlaydi. Diniy manbalar va muqaddas kitoblarda keltirilgan Ollohning sifatlari haqida tasavvur va tafakkur qila boshlaydi. Fikrimizcha, ushbu bosqichda bolalar qaror qabul qilishni, turli jarayonlar va hodisalarni analiz qilishni o'rgana boshlaydilar. Ayni shu jarayonlarda muammoga yechimlar ishlab chiqish, yangi g'oyalar yaratish va ijodkorlik xususiyatlarining shakllanishiga ushbu bosqichda shakllangan diniy tafakkur va dunyoqarashning roli muhimdir. Turli kundalik va ta'lim jarayonlarida, o'quv faoliyati va qaror qabul qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish vaqtida dinda qadrlangan sabr-toqat, burch kabi yuksak hislarga tayanish juda muhim va ijodiy tafakkur shakllanishi uchun asosiy omillardan hisoblanadi.

10-14 yoshlar orasida diniy tafakkur abstrakt bosqichga o'tadi. Ushbu davrda shaxs diniy hodisalar, jarayonlar, dindor shaxslarni tashqi ko'rinish orqali emas, balki ishonch, e'tiqod va o'ziga xoslik asosida farqlashni boshlaydi. Ular ibodatni boshqa bir ehtiyojlarni qondirish emas, Olloh bilan bog'lanish vositasi sifatida tushuna boshlaydilar. Bolalarda shu asosda abstrakt tafakkur rivojlanadi.

Diniy tafakkur rivojlanish jarayoni keyinchalik boshqa olimlar tomonidan ham tadqiq etilgan. Psixolog olim Murphy diniy matnlar va konsepsiyalarni tushunish orqali diniy tafakkur rivojlanishini o'rgangan [10. P-168,172]. Uning xulosalariga ko'ra ham diniy tafakkur 3 bosqichda va shu yosh davrlari asosida shakllanishi aniqlangan.

Yuqorida olimlarning diniy tafakkur shakllanishi bilan bog'liq fikrlari keyinchalik diniy bilimlarni o'qitishga ham ta'sir qila boshladi. Xususan, Goldman diniy ta'lim berishda hayotga asoslangan yondashuvni taklif etdi. Bu yondashuvga asosan, bolalarning faqat dinga asoslangan fanlarni o'zlashtirishi emas, balki hayot fanlarini ham birgalikda o'zlashtirishi, zamonaviy bilimlarni ham o'zlashtirishi, diniy bilimlarni kundalik hodisa va voqealarga bog'lash, dunyoviy fanlardagi nazariya va qarashlar asosida sharhlash kerakligi ta'kidlanadi. Bu orqali bolalar, avvalo, diniy bilimlarni yaxshiroq tushunishlari va tasavvur qilishlari, turli diniy qoidalar va normalarni shaxsiy hayotiga to'g'ri tadbiiq qilishi mumkin. Qolaversa, bolalar turli muammolar va masalalarga dunyoviy va diniy bilimlarni integratsiyalash asosida yechimlar topish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, to'g'ri qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini shakllantirishi mumkin bo'ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi va usullar.** Diniy tafakkur bo'yicha tadqiqotlarning keyingi bosqichi Kohjbergning axloqiy rivojlanish nazariyasiga asoslanadi. Bu nazariya vakillari Neo-Piajet nazariyasi vakillari ham deyiladi va ular dastlabki Piajet qarashlariga asoslangan tadqiqotlardagi kamchiliklar asosida tadqiqot olib boradilar. Asosan, ular diniy tafakkur shakllanishining ekzistensial va affektiv tomonlarini tahlil

qilish orqali tushuntiradilar. Asosan, Piajetning metodologiyasi va Kohelbergning mulohazalari ularning tadqiqotlarida asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu tadqiqotlar asosida Kohlbergning shogirdlari Jeyms Fovler hamda Frits Ozer tomonidan e'tiqodiy rivojlanishning olti bosqichli modeli taklif etiladi.

Fovlerga (1974, 1981) ko'ra, e'tiqod diniy va kognitiv jarayon sifatida tasvirlanadi, lekin u bundan ko'ra murakkabroq tushuncha hisoblanadi. Diniy e'tiqod shaxsning o'zini o'z mavjudligidagi voqea-hodisalarga bog'lagan holda tanishi, anglashi hisoblanadi [5. P-207,219]. Uning modeli bu turdagi bilish jarayoni hayot davomida qanday sodir bo'lishini aniqlashga asoslangan. U ushbu modelni tuzish uchun Shimoliy Amerikalik 4 yoshdan 84 yoshgacha bo'lga 500 ta sinaluvchida individual intervyu orqali empirik tadqiqot o'tkazadi. Intervyuning birinchi bosqichida sinaluvchilar o'z ma'lumotlari va dunyoqarashlarini avtobiografik usulda taqdim qilganlar. Ikkinchi qismida esa ularning shaxsiy kechinmalari, shaxsiyatini tashkil qilishda nimalarga e'tibor berishlari, hayot mazmuni haqida savollar berilgan. Intervyu jarayonida ularning din, diniy e'tiqod bo'yicha fikrlari, qarashlari, bilimlari, hayot tarzi, hayotiy muammolarni yengishda, yechimlar topishda diniy bilimlarning qay darajada qo'llay olishlari aniqlangan [6].

**Muhokama va savollar.** Fovlarning e'tiqodiy taraqqiyot modeliga ko'ra, e'tiqod yetti darajada shakllanadi. Model A - logikaning shakllanishi, B - dunyoqarashga ega bo'lish, C - axloqiy qaror qilishning shakllanishi, D - ijtimoiy ongning shakllanishi, E - nazorat lokusi, F - dunyoni anglashning shakllanishi, G - ramziy ma'nodagi diniy fenomenlarni anglash kabi darajalarni o'z ichiga oladi. Fovler J. fikricha, ushbu darajalarga yetishda quyidagi bosqichlardan o'tishi kerak: [1. B-157].

1-bosqich intuitiv-proektiv bosqich bo'lib, 3-7 yoshlarga to'g'ri keladi. Bu bosqichda bolalar e'tiqodi imitatsiya, idrok va fantaziya ko'rinishlarida bo'ladi. Bolalar diniy tushunchalar va fenomenlarni to'liq tafakkur qila olmaydilar. Diniy amallarni ham kattalarga taqlid qilish, o'rganish asosida amalga oshiradilar. Asosan, diniy jarayonlar haqida tasavvur qila boshlaydilar. Bu ularning obrazli tafakkuri bilan bog'liq jarayon bo'lib, ushbu fikrlash turi orqali bolalar diniy jarayonlar, diniy manbalardagi voqea-hodisalarni tasavvur qilish, obrazlashtirish orqali idrok qilishni ta'minlaydi.

2-bosqich: mifik yoki to'g'ridan-to'g'ri bosqichi bo'lib, 7-12 yoshlarga to'g'ri keladi. Bola xarakter xususiyatlarida har bir voqea-hodisani to'g'ridan-to'g'ri idrok qilish, fikriy cheklanganlik, oilaviy mojarolar bilan bog'liq reaksiyalarning paydo bo'lishi mumkin. Ushbu bosqichda shaxs ma'lum bir diniy manbalar, qarashlar va konsepsiyalarni idrok qilishi, diniy jarayonlar va amallarni anglagan va tushungan holda bajarishi mumkin. Lekin murakkab diniy konsepsiyalar, matnlarni to'liq tafakkur operatsiyalari orqali tahlil qila olmasligi ham ushbu bosqich uchun xos hisoblanadi.

3-босqич синтетик-конвенционал босqич hisoblanadi va u o'smirlik davriga to'g'ri keladi. Bu davrda diniy e'tiqod hamda tafakkur shakllanishida o'zmirlik davri uchun xos xususiyatlar bilan bog'liqdir. O'smirlik davrida bola ko'pincha do'st tanlash, tengdoshlari bilan muloqot faoliyati bilan shug'ullanadi va ko'p vaqtida o'quv jarayoni va do'stlari bilan muloqotda o'tkazadi. Shuning uchun ko'proq diniy konsepsiyalar, diniy bilimlarni tashqi manbalar, do'stlar, yoki o'zi hurmat qila oladigan va yaxshi muloqotda bo'lgan ustozlaridan ko'proq o'zlashtirishi mumkin. Bu jarayon tarbiya bilan ham uzviy bog'liq bo'lib, ota-onalardan yumshoqlik va do'stona muloqot orqali tarbiya berish usulidan ko'proq foydalanilishi bolada sanogen (sog'lom) tafakkur shakllanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

4-bosqich individual-refleksiv deb nomlanadi. Bu bosqich inson o'zi mustaqillikka qadam qo'ygan davriga to'g'ri keladi. Turli hayotiy va ta'lim jarayonidagi muammolarni mustaqil hal qilish, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirgan bo'ladi. Bu davrda shaxs e'tiqodini mustaqil shakllantirishga harakat qiladi va bu ta'lim jarayoni bilan birga amalga oshiriladi. Diniy bilimlar ancha konkretlashadi, shaxs diniy fenomenlarni, murakkab konsepsiyalarni tahlil qilish, taqqoslash kabi ijodiy tafakkurning muhim xususiyatlaridan foydalana boshlaydi.

5-bosqich paradoksal konsolidatsiyalashgan davr bo'lib, u o'rta yosh umr davriga to'g'ri keladi. Bu davrda shaxsda ratsional fikrlash shakllanadi.

Ratsional fikrlash bu hissiyotlarga emas, balki ko'proq mantiqiy fikrlash, dalillar va tanqidiy tahlillarga asoslangan qarorlar qabul qilishni o'z ichiga oladi. Bu variantlarni topish, konvetgent fikrlash, oqibatlarini hisobga olish va aql hamda dalillarga mos keladigan tanlov qilishni anglatadi. Shaxs diniy fenomenlar va bilimlar haqida kengroq tafakkur qiladi, ilmiy faktlar va dalillarga tayanishga harakat qiladi. Ushbu jarayon shaxsning ijodiy fikrlashi jarayonini rivojlantiradi.

6-bosqich universiallashtirgan bosqich hisoblanadi. Bu davrga kelib inson o'z qadriyatlarini doirasida yashashni boshlaydi. Diniy amallar tizimi bo'yicha hayotni davom ettirishi, o'z o'tmishi, hayoti, o'zligi va dunyo hamda oxirat haqida fikr yuritishi mumkin bo'ladi.

**Xulosa.** Yuqoridagi diniy tafakkur va e'tiqod rivojlanishi nazariyalari odamlarga murakkab g'oyalarni o'rganish, tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish va diniy matnlar va e'tiqodlarni talqin qilish uchun asoslar bilan ta'minlash orqali ijodiy tafakkur rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu nazariyalar, shuningdek, shaxsda qarama-qarshi nuqtai nazarlarga nisbatan kompromistik ruhda bo'lishi, va teologik va ekzistensial savollarga yangi yechimlarni ishlab chaqirish orqali turli xil fikrlashni rag'batlantirishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alimov X.M. “Din psixologiyasi”. Darslik. - Toshkent: “Qaqnus Media” MCHJ. 2019. 157 B.
2. Beyer, P. “Religions in global society”. British Journal of Sociology. DOI: 10.1111/j.1468-4446.2007.00153 3.x. New York: Routledge 2007.
3. Dusmuxammedova Sh.U., Yo‘ldosheva G. O‘. “Diniy ong shaxs kamolotining muhim omili sifatida”. Scientific-Theoretical and Practical Issues of Psychology of Religion in Uzbekistan. Volume 3. DOI: 10.24412/2181-1385-2022-02-65-69. O‘z.XIA. 2022.
4. Elkind, D. “The child’s conception of his religious domination: The Jewish child”. Journal of Genetic Psychology 99. 1961. P - 649-659.
5. Fowler, J. W. 1974. “Toward a developmental perspective on faith”. Religious Education 69: 1974. p - 207-219.
6. Fowler, J. W, Nipkow, K. E., and Schweitzer, F. Ed.s. “Stages of faith and religious development”. London: SGM Press Ltd. 1991.
7. Goldman, R. 1964. “Religious thinking from childhood to adolescence”. London: Routledge and Kegan Paul. <https://doi.org/10.4324/9781003260684>.
8. Inhelder B. and Piaget, J. “The growth of logical thinking from childhood to adolescence”. New York: Basic Books. DOI: 10.4324/9781315009674. 1958.
9. Kohlberg, L. “From is to ought: How to commit the naturalistic fallacy and get away with it in the study of moral development In Cognitive development and epistemology” New York: Academic Press. 1971.
10. Murphy, R. J. L. “Does children’s understanding of parables develop in stages?”. Learning for Living. 1977. p - 168-172.
11. Wulff, D. M. “Psychology of religion: Classic and contemporary”. New York: Wiley. 1997